



MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDAGI BAYRAM ERTALIKLARIDA MUSIQAVIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.

Achilova Soxiba Xamidovna

Qo'qon Davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Valixo'jayeva Mohizoda Muhammadxo'ja qizi

Qo'qon Davlat universiteti talaba.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli tadbirlar, bayram ertaliklari ssenariylari, Xalq bayramlari, bolalarning mustaqil musiqiy tadbirlari, Xalq bayrami, bolaning rivojlanishi, musiqa madaniyati asoslarini maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavjud bo'lgan barcha muhim tarkibiy qismlarning birligida shakllantirish uchun imkoniyat yaratish, faoliyatini tashkil etish, barcha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan bayram ertaliklarida musiqaviy didaktik o'yinlarni o'tkazish kabi masalalarni uoritadi

Tayanch so'zlar: Bolalarning mustaqil musiqiy tadbirlari, Xalq bayrami, bolaning rivojlanishi, musiqa madaniyati, bayram ertaliklari, musiqaviy didaktik o'yinlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации различных мероприятий в дошкольных образовательных организациях, сценариев праздничных утренников, народных праздников, самостоятельной музыкальной деятельности детей, народных праздников, а также создания условий для формирования у детей основ музыкальной культуры в единстве всех важных компонентов, доступных для дошкольного возраста, организации деятельности, проведения музыкально-дидактических игр на праздничных утренниках, проводимых с детьми всех возрастных групп.

Ключевые слова: Самостоятельная музыкальная деятельность детей, народный праздник, развитие ребёнка, музыкальная культура, праздничные утренники, музыкально-дидактические игры.

Annotation: This article examines issues related to the organization of various events in preschool educational institutions, scripts for festive morning performances, folk celebrations, children's independent musical activities, as well as the creation of conditions for forming the foundations of musical culture in children through the integration of all important components accessible to preschool age. It also addresses the organization of activities and the use of musical-didactic games during festive morning performances conducted with children of all age groups.

Keywords: Children's independent musical activities, folk festival, child development, musical culture, festive morning performances, musical-didactic games.

Xalq amaliy san'ati va an'analari bilan aloqa qilish, xalq sayillarida qatnashish bolani ma'naviy boyitadi, o'z xalqi bilan faxrlanishni, uning tarixi va madaniyatiga

qiziqishni asrash, xalq bayramlari bolalarga o‘z o‘tmishini, kelib chiqishini, xalqining tarixi va madaniyatini bilish va hurmat qilishga yordam beradi.

Xalq bayramlari pedagogik xususiyatga ega bo‘lib, ular bolalarni ham, kattalarni ham yagona bayram tadbiriga qamrab oladi. Xalq bayrami bolaning rivojlanishi, musiqa madaniyati asoslarini maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavjud bo‘lgan barcha muhim tarkibiy qismlarning birligida shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi.

Bularning barchasi nafaqat o‘ziga xos kichik folklor shakllariga, balki musiqa va folklor san‘atiga ham doimiy qiziqishning rivojlanishiga yordam beradi. "Xalq bayramlari jamiyat ichidagi munosabatlarning ijtimoiy terapiyasi, bu munosabatlar normalarini o‘ynaydigan funktsiyalarga ega" (D. Freyzer, M. Mid).

Bunday xalq bayramlari bolalarda quvonch tuyg‘usini uyg‘otadi, bog‘chaga hissiy jihatdan ijobiy munosabatda bo‘ladi, unga borish istagi yangi taassurotlar va bilimlar bilan boyitadi, faol ijodiy faoliyatni rag‘batlantiradi, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga yordam beradi.

Bayram ertaliklari va ko‘ngil ochishlar bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatga yo‘naltirish manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Bayram ertaliklari bu har bir bolaga hursandchilik olib keluvchi, hayajonga soluvchi va ularning hotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoluvchi hodisadir.

Bayram ertaliklari ssenariylari o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi faoliyatlarni oladi. Bunda bolalar qo‘shiq aytadilar, raqsga tushadilar, she‘rlar yodlaydilar, bolalar cholg‘ulari orkestrida yoki yakka tarzda chaladilar. Barcha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan bayram ertaliklarida musiqaviy didaktik o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Bu o‘yinlar faoliyatlar va bo‘sh vaqtlarda o‘tkazilganligi sababli bolalarga yaxshi tanishdir. Shuning uchun ham ularga yangicha ko‘rinish va shakl berib, bayramona bezatilgan holda tashkil etilishi lozim.

Ertalikda shuningdek yangi, bolalarga tanish bo‘lmagan o‘yinni ham o‘tkazish mumkin. Bunday o‘yinlarning mazmuni bolalarga tanish musiqiy materiallar asosida tuzilsa bas. Ko‘pgina musiqaviy didaktik o‘yinlarni sovg‘a o‘rnida ham kiritish mumkin. Bunday o‘yinlar bolalarga sovg‘alar va h.k. tarqatish bilan bog‘lanadi. Masalan, masharaboz parda ortida turli cholg‘ularda chaladi, bolalar cholg‘ularni ovovzidan farqlab, nomlarini aytadilar. So‘ngra, masharaboz ushbu cholg‘u asboblarini barchasini bir vaqtda jaranglashini tinglab ko‘rishni taklif etadi va bu hol qanday nomlanishini bolalardan so‘raydi. Bolalar: «Orkestr» deb javob beradilar. Shundan so‘ng katta guruhlar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan bolalar cholg‘ulari orkestrining chiqishi tinglanadi.

Yoki, kichik guruhlar tarbiyalanuvchilarining ertaligiga Shumbola (katta guruh bolasi) mehmonga keladi. U metallofonda bolalarga tanish bir nechta qo‘shiqlar ohangini chaladi. Kichkintoylar buni qaysi qo‘shiq ekanini topadilar. So‘ng, Shumbola nog‘oracha yoki doira yoki baraban chalib, chalinayotgan cholg‘u asbobni shaklidagi kichik qutichalarga joylangan sovg‘alarni tarqatadi.

Ertaliklarga ssenariy tuzayotgan vaqtda, unga barcha bolalarni jalb qilish shartligini yodda tutishi lozim. Har bir bolani faol ishtirok etishi, keyinchalik uning mustaqil faoliyati davomida o‘z aksini topadi. Kelgan mehmonlar qarshisida

tortinchoqlik namoyon qiluvchi bolalar, boshlovchi taklif etgan musiqaviy-didaktik o’yinlarda faollik ko’rsatadilar.

Tabiiyki musiqaviy – didaktik o’yinni ertalik mavzusiga ko’ra tanlash va dasturiga moslashtirish lozim. Ya’ni, o’yin alohida chiqishlar bilan bog’lanishi va ssenariyning umumiy, yaxlitligini ta’minlashi lozim.

Masalan, yangi yil bayram ertaligida Qorbobo bilan birgalikda o’rmon hayvonlari ham mehmonga keladilar. Qorbobo bolalarga o’zi bilan qaysi o’rmon hayvonlarini olib kelganligini topishni taklif qiladi. Bolalarga tanish bo’lgan, turli hayvonlar haqidagi qo’shiqlar kuyi birin-ketin yangraydi. Bolalar ularni birin-ketin tanib oladilar. Har bir to’g’ri javobdan so’ng, o’rmon hayvonining kirib kelishi kichkinagina sahna ko’rinishi sifatida o’tkaziladi. Ko’ngil ochish ham xuddi ertalik kabi muassasaga hursandchilik, quvonch olib keluvchi tadbiridir.

Har bir ko’ngil ochish bolalarning taassurotlarini boyitishi, quvnoq hislarni uyg’otuvchi bo’lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli ko’rinishdagi teatr tomoshalari, diafilmlar va multfilmalar tomoshalari, tug’ilgan kunlar, adabiy-musiqiy kechalar, bolalar ijodiyoti ko’riklari, ertaklarni sahnalashtirish kabi ko’ngil ochishlarni tashkil etish mumkin.

Ko’ngil ochishlarga shuningdek, turli musiqaviy didaktik o’yinlarni ham kiritish mumkin. Bolalarning yoshlariga mos va ular uchun qulay bo’lgan shakl o’yin shaklida olgan bilimlarini mustahkamlash, bolalar orkestri ijrosida yoki gramyozuvda tinglagan musiqani tanib olish, uning nomi va bastkaorining ismini aytish kabi topshiriqlar asosida dasturda beligalingan maqsad va vazifalarni amalga oshirilishiga erishish mumkin.

Shunday qilib, ko’ngil ochishlarda musiqaviy didaktik o’yinlarni qo’llash bolalarni ijodiy jarayonga faol jalb qilish imkonini beradi. Ko’ngil ochish bolalarning o’quv yili davomida olgan bilimlarining yakuni sifatida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, «Musiqali konkurs» ana shunday tadbir sarasiga kirishi mumkin. Bunday konkursni har bir yosh guruhi bilan o’quv yilining oxirida yil davomida olingan bilimlarni nazorat qilish va mustahkamlash maqsadida o’tkazilishi tavsiya etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ertaliklar va bayramlar davlatimizning muhim voqealari bilan bog’liq tarzda tashkil etiladi. Turli xil bayramlarga bag’ishlangan ertaliklarda bolalar mamlakatimizning muhim sanalari va bayramlari bilan tanishib boradilar. Bunday ertaliklarda musiqa asosiy o’rinda turadi. Bunday ertaliklarda bolalar qo’shiq kuylaydilar, raqsga tushadilar, bolalar musiqiy cholg’ularida ijro etadilar. Bunday ertaliklar uchun ataylab ssenariylar yoziladi.

Stsenariylar mavzusi bayram ruhiga yaqin bo’lishi, turli xil she’rlar, kuy va qo’shiqlardan tashkil topgan bo’lishi kerak.

Demak, bayram ertaliklaridagi repertuar xilma - xil bo’lmog’i lozim. Tanlanadigan repertuarning mazmuni bayram mazmuni bilan hamohang bo’lishi muhim. Davlatimiz bayramlaridan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hayrlashuv kechalari ham tashkil etiladi. Bunda asosan, tayyorlov guruhlari bolalari ishtirok etib, ular bog’cha bilan hayrlashib maktabga yo’llanma oladilar.

Mavsumiy: Hosil bayrami (Mehijon); Archa bayrami; Navro’z bayrami; Gullar va qushlar bayrami. Ushbu bayramlar xalq og’zaki ijodi namunalar asosida tashkil qilinadi.

Yilma yil bolalarning ushbu bayramlar, ularning har biri bilan bog’liq bo’lgan xalqimizning madaniy, milliy an’ana va urf-odatlar haqida olgan bilimlari kengayib boradi. Ijtimoiy-siyosiy: Mustaqillik kuni; 21- oktyabr - O’zbek tiliga davlat mumtoz musiqa i berilgan kun; 8-dekabr- Konstitutsiya kuni;14-yanvar- O’zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari tashkil topgan kun. Har bir bayramning «oilaviy» qismi bo’lib, uguruh xonasida, aksariyat hollarda ota-onalar ishtirokida o’tadi. Har bir bayramda: bayram mazmuniga mos o’yinlar tashkil qilinadi, she’r, qo’shiq va h.k. aytiladi bolalar va kattalar uchun ko’ngil ochish soatlari o’tkaziladi, sir tutilgan daqiqalar, esdalik sovg’alari tashkil qilinadi. Bola maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qadam qo’ygan davridan boshlab, yilma-yil bir jadval asosida bayramlar tashkil qilib boriladi.

Adabiyotlar.

1. Normatova M. Musiqa olamiqa sayohat traveling to the musical worl Adabiyot uchuq T-2017y
2. Qobilova E. Musiqa o’qitish metodikasi. T-2019 y
3. Sharipova G. Musiqa o’qitish metodikasi. T-2020 y
4. D.Nosirov O’zbek xalq musiqa ijodi Q-2023y
5. Shodiyeva G. Maktabgacha musiqiy-estetik ta’lim nazariyasi va metodikasi Ilm va Fan T-2023
6. S.Rasulova. Vokal va zamonaviy musiqa. T-2023y